

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**IJTIMOY FANLAR
SOCIAL STUDIES**

**ISLOM TA’LIMOTIDA O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI GENDER
TENGLIGI MASALASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

Aripov Shokirjon Olimovich
Farg’ona davlat universiteti
p.f.b.f.d (PhD) Pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi
ORCiD 0000-0002-7703-0027

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblangan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni gender tengligi to‘g‘risida ma’lumot berilgan va tahlil etilgan. Xususan, islam dini va unda gender tengligining roli haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Islomda tenglik masalasi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi hamda bu boradagi fikrmulohazalar keltirilgan. Buni tushuntirish va tahlil etish orqali ijtimoiy hayotimizdagi ko‘plab savollarga javob topamiz.

Tayanch so‘zlar: gender tenglik, o‘smir, o‘quvchilar, jamiyat, davlat, islam dini, islam huquqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlar;

Аннотация. В данной статье представлена и проанализирована информация о гендерном равенстве учащихся подросткового возраста, которая считается одной из актуальных проблем сегодняшнего дня. В частности, представлены аналитические данные об исламе и роли гендерного равенства в нем. В исламе вопрос равенства проявляется по-своему, и представлены размышления по этому поводу. Объясняя и анализируя это, мы находим ответы на многие вопросы в нашей общественной жизни.

Ключевые слова: гендерное равенство, подросток, учащиеся, общество, государство, исламская религия, исламское право, общественно-политические взгляды;

Annotation. This article provides and analyzes information on gender equality among adolescent students, which is considered one of the most pressing issues today. In particular, analytical data on Islam and the role of gender equality in it are presented. The issue of equality in Islam manifests itself in a unique way, and opinions on this matter are presented. By explaining and analyzing this, we find answers to many questions in our social life.

Keywords: gender equality, adolescent, students, society, state, Islamic religion, Islamic law, socio-political views;

KIRISH

Jahonda gender yondashuv asosida o‘smirlarda madaniy immunitetni shakllantirish, ular o‘rtasida jinoyatchilik, o‘z joniga qasd qilish va ijtimoiy me’yorlardan og‘ishning oldini olish,

milliy va ma’naviy qadriyatlarni egallash hamda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni ta’minlashning kreativ modellari amaliyatga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o‘tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklarasiyasida “o‘s米尔 yoshdagi o‘quvchilarda o‘zlarining gender rollarini farqlash va gender rollarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini jadal rivojlantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish” qayd etilgan bo‘lib, o‘s米尔 yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirish, o‘quvchilarning madaniy immunitetini shakllantirishda hayotiy vaziyatlarni imitasiyalash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, gender ijtimoiylashuvni ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ijtimoiy hayotimizni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, siyosiy, ijtimoiy jabhalarda erkaklar va ayollarning rolini izchillashtirish masalasi ham shular jumlasidandir. Ayniqsa, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan targ‘ibot va tashviqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu masalada jamiyatning quyi qismida ko‘plab tushunmovchilik va chalkashliklar mavjudligi uni yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Xususan, 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bilan O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim darajasi va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish bo‘yicha davlat siyosati yanada takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 dan ortiq farmoni, qarori, hukumat qarorlari, vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda olib boriladigan 20 dan ortiq tadbirlar rejasida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash sohasini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. 2022-yilning yanvar oyida Prezidentning “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu kabi islohotlar zamirida ayollarning jamiyatdagи o‘rnini yanada mustahkamlash, ularga har tomonlama imkoniyatlar yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda din sohasidagi mavjud islohotlar va ularning jamiyatdagи muhim masalalariga bo‘layotgan munosabatini ham e’tiborga olish lozim.

Mamlakatimiz aholisining 90 foizdan ortig‘i islom diniga e’tiqod qilishini inobatga olgan holda, islomda gender tenglik masalasi qanday tahlil etilishi ham ahamiyatga egadir. Bilamizki, ijtimoiy masalalar nafaqat huquqiy jihatdan, balki jamiyatning bir qismi hisoblangan diniy-milliy qadriyatlar asosida ham tartibga solinadi. Diniy-milliy qadriyatlarimizda gender tengligi masalasi qanday tahlil etilishi va uning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat ekanligini o‘rganish va tahlil etishdan iborat. Gender tengligini islomdagи o‘ziga xosligini aniqlashdan oldin, islom dinnining mazmun-mohiyatini aniqlashtirishimiz kerak. Islom dini jahon dinlaridan biri bo‘libgina qolmay, u yuksak taraqqiy etgan huquqiy oila va o‘ziga xos huquqiy madaniyat məktəbidir. Islom dini Allohga ibodat qilish masalalarini bayon qilish bilan birga musulmonlarning kundalik hatti-harakatini tartibga solishga, ularning turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgandir. Bugungi kundagi huquqiy tizimlar ijtimoiy munosabatlarning

eng muhim masalalarini tartibga solsa, islom huquqi ham hayotning ulkan masalalaridan tortib, oddiy ikir-chikirlargacha kirib borib, ular o‘rtasida o‘ziga xos qoidalar va nizolarni belgilab beradi. Mashhur islomshunos, fahiq Abdul Homid G‘azzoliyning fikricha, islom huquqi insonning quyidagi huquqlarini himoya qiladi:

- hayotini;
- aqlini;
- dinini;
- naslini;
- molini.

Islom dinida tenglilik masalasi, ayol huquqlariga qanday ahamiyat qaratilgani to‘g‘risida ko‘pgina olim fiqh ilmi ulamolari turli fikrmulohazalrn bildirib o‘tishgan. Islomda inson huquqlari, jumladan tenghuquqlilik masalasi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tenghuquqlilik millatlar o‘rtasida, yosh, fuqarolik, irq, ijtimoiy kelib chiqish, jins va shu kabilar o‘rtasida bo‘lishi mumkin. Tenghuquqlilik prinsipi bu barcha davlar organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolar va mansabdor shaxslarning kimligidan qat’iy nazar qonunlarga so‘zsiz bo‘ysunishi va ularning qonun oldida barobar bo‘lishidir. Adolat ramzi bo‘lgan bu prinsip huquqiy tarbiya natijasida kamolga yetadi. Tahlil etilishi belgilangan masala obekti bo‘lgan tenglik, tenghuquqlilik, aynan erkak va ayol o‘rtasidagi tenglik, tenghuquqlilik masalasidir. O‘rta asrlar Islom madaniyatida o‘g‘il bolalarga kuch-qudrat egasi, mardlik, jasorat timsoli, Vatanni mudofaa qiluvchi shaxs sifatida qaralgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek xalqi madaniyatida o‘g‘il bolalarda mardlik sifatlarini, qizlarda esa ayollarga xos sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan madaniy an‘analar va urf-odatlar mavjud. Ushbu an‘ana va urf-odatlarga amal qilish tajribasining borgan sari kamayib borishida “ommaviy madaniyat”ning hissasi ulkan. Shu bilan bir qatorda xorijiy davlatlarga ketgan va xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ko‘plab o‘g‘il va qiz bolalar muhit ta’sirida o‘zlarining madaniy dunyoqarashlarini o‘zgartirishga majbur bo‘lmoqdalar. Chunki ular har qanday sharoitga moslashib, yashash va bilim olishga majbur bo‘lmoqdalar. O‘g‘il bolalar esa qizlarga xos qadriyatlar tizimini o‘zlashtirmoqdalar.

O‘zbekiston jamiyatida milliy mentalitetni saqlab qolgan, milliy madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan o‘g‘il va qiz bolalarning shakllanishi ularni jasorat, safarbarlik ko‘rsatishga undaydi. Bu, o‘z navbatida, tarixiy-madaniy tajribani samarali o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi.

Yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ota-onalar va pedagoglar o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarning xatti-harakatlari, ular amal qiladigan stereotiplar, qiziqishlar, ma’naviy madaniy qarashlari, e’tiqodlarini har tomonlama chuqur tahlil qilish natijasida baho berishlari hamda oilada, ta’lim muasasasida ularning mavqelari, bajaradigan rollarini to‘g‘ri belgilab berishlari, o‘z rivojlanish taraektoriyalarini tanlashlariga sharoit yaratishlari lozim. Shu bilan bir qatorda pedagoglar ham ota-onalar ham o‘g‘il bolalarning madaniy

dunyoqarashlari, sog‘lom rivojlanishiga e’tibor qaratishlari zarur. Buning uchun ta’lim jarayonining barcha subyektlari o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlarini chuqur o‘zlashtirishi, o‘smlilar ongida madaniy qadriyatlarimiz haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishlari talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan manbada yana quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin: aynan islom dini doirasida gender rollari mutanosibligi eng uyg‘un tarzda kuzatilmogda, islom diniga ko‘ra, musulmon ayol jinsiy ekspluatatsiya obyekti bo‘lishi mumkin emas, u hurmat va ehtiromga ega. Mafkuraviy munozaralarning eng yuzaki tahlili ham musulmonlar o‘rtasida yuqori darajadagi birdamlik mavjud bo‘lganda, ularni ayollarning jamiyatdagi, oiladagi, diniy tashkilotlardagi o‘rni va roli haqidagi g‘oyalarni tushunishga imkon beradi. Ma’lumki, musulmon ayollarning huquqlarini faqat oila ichkarisida deb hisoblaydigan o‘ta konservativ talqinlar ham yoki aksincha, islom ayollarga o‘zini nomoyon qilish uchun keng imkoniyatlar beradi va hech bo‘lmaganda potensial ravishda gender tengligi uchun huquqiy va madaniy asoslar beradi tarzidagi xulosalar ham mavjud.

NATIJA VA MUHOKAMA

Islom ta’limotida erkaklar va ayollarning tengligi masalasi o‘ziga xos tarzda belgilanganligi, erkaklar va ayollar o‘zlariga berilgan huquq va majburiyatlariga ko‘ra tengdirlar. Bu tenglik ularning ijtimoiy-bilogik tuzilishlaridan kelib chiqib, oilada va jamiyatdagi mavqeilaridan kelib chiqqan holda e’tirof etiladi. Masalan, Oilaviy munosabatlarda, oilaning taraqqiy topishi asosan ayollarning xizmatlari evaziga rivoj topsa, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda erkaklarning vazifasi muhim hisoblanadi. Islom ana shu mo‘tadillikni va o‘ziga xos tenglikni o‘rnatgan din hisoblanadi. Fikrimizning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini, shu mavzudagi yana bir fikr bilan mustahkamlaymiz: “Agar biz bevosita hayotni yaratish borasida kishilarning funksiyalari va rollariga qaraydigan bo‘lsak, biofiziologik xususiyatiga ko‘ra mehnatni tashkil etish va tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish erkak jinsiga, oila taraqqiyoti esa ayol jinsiga aloqador ekanligini ko‘ramiz. Shu aloqadorlik erkak va ayol jinsining hayotdagi funksiyalari va rollari erkak va ayol orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi jihatlardir. Demak, erkak va ayol jamiyat hayotida o‘ziga xos o‘rin va o‘ziga xos mavqega ega. Hech qachonn erkak ayolning vazifasini ayoldek, ayol esa erkakning vazifasini erkakdek bajara olmaydi. Bunga bir qancha sabablar bor. eng avvalo, erkak va ayol o‘zining biologik va psixologik jihatlari bilan bir-biridan ancha farq qiladi, Albatta, erkakda bo‘lgan jismoniy salohiyat ayolda yoki ayoldagi mehr, yumshoq tabiatlilik, nozik did erkaklarda yo‘q bo‘lishi mumkin. Islom ta’limotiga ko‘ra, har ikki jinsga uning xususiyati, biologik va psixologik tuzilishiga qarab huquq va majburiyatlar belgilab berildi”.

XULOSA

Umuman olganda, gender tenglikni ta’minalash, jinsiy zo‘ravonlikni oldini olish, jamiyatda ayollar va erkaklarning ijtimoiy-siyosiy rolini oshirish maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirilishi, din sohasi vakillarining ham bu boradagi islohotlari muhimdir. Ayniqsa

bugun insonlarga ularga yaqin va ochiq yo‘nalishda asosli ma’lumotlarni taqdim etish, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni oldini olgan bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi kunda biz globallashib borayotgan, axborot xurujlari davrida yashayapmiz, har bir masala o‘zining isboti va yakdil xulosasi bilan umumlashtirilsa jamiyatdagi ko‘plab so‘roq ostidagi savollarga javob topgan bo‘lamiz. Shuningdek, islom manbalarining amaliyotga tadbiq etishda zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga uzviy bog‘langan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
3. Tojiboyeva X.M. “Gender yondashuv asosida o‘s米尔 yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari” // Monografiya. – Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021. – 208 bet.
4. Yusupova N.J. Islomda ayol huquqlari. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 28.
5. Aripov Sh.O. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... dis. – Farg‘ona, 2023. 133 bet.
6. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // “Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila” xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.
7. Ismailova Z., Ismaylova R., Saydivalieva K., Tuychieva G. (2021) Development of gender entrepreneurship // Topical Problems of Green Architecture, Civil and Environmental Engineering, Volume 284. <https://doi.org/10.1051/ye3sconf/202128411020>
8. Saydivalieva X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati // “Markaziy Osiyoda gender, jamiyat va oila” xalqaro ilmiy jurnali. – № 1 (2), 2022. – B. 68.